Jahon kimyo sanoati yangiliklari: tibbiy polimerlarning jahon bozori 2029-yilga kelib uchdan bir qismga oshadi

// 25.10.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kimyo-sanoati-yangiliklari-tibbiy-polimerlarning-jahon

Tibbiy polimerlarning jahon bozori 2024-yildagi 41,1 milliard dollardan 2029-yilga kelib 60,5 milliard dollargacha o‘sishi kutilmoqda.

Yillik o‘sish sur’ati (CAGR) prognoz davrida 8,0 foizni tashkil etadi. MarketsandMarkets nashrining xabar berishicha, polimerlarga yuqori talabning oshib borishi ularning tibbiy xizmat ko‘rsatishda bemorlar uchun xavfsizligini ta’minlash va infeksiyalar sonini kamaytirishdagi muhim roli bilan bog‘liq.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi tibbiy polimerlardan foydalanishda yetakchiga aylandi. Bunga Xitoy, Hindiston va Yaponiya kabi mamlakatlarda jadal urbanizatsiya, iqtisodiy o‘sish va sog‘liqni saqlash sohasidagi o‘zgarishlar sabab bo‘ldi. Bu omillar ushbu mamlakatlarda tibbiy jihozlarga, jumladan polimerlarga ham talabni oshiradi.

Tibbiyot plastiklari o‘zining universalligi bilan tibbiy polimerlar bozorida tibbiyot elastomerlariga nisbatan katta ulushga ega. Ular turli xil tibbiy asboblar, qadoqlash va jihozlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Zamonaviy ishlanmalar ushbu plastiklarning xususiyatlarini yaxshiladi. Ularning mustahkamligi, moslashuvchanligi va shaffofligi oshdi, bu tibbiyotning qat’iy talablariga javob beradi.

Bundan tashqari, bir marta ishlatiladigan mahsulotlarga talabning ortishi va minimal invaziv muolajalarning ko‘payishi tibbiy plastiklardan foydalanishning ko‘payishiga olib keladi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati